

4+2 NING AMALIYOTINI SAMARALI TASHKIL ETISH ORQALI NAZARIY VA AMALIY TA'LIM UYG'UNLIGINI TA'MINLASH

Yoqubjanova Diyorakhon Dilshodbek qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim tizimida nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlashning muhim mexanizmlaridan biri sifatida 4+2 ta'lim modelining pedagogik ahamiyati hamda uni samarali tashkil etish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonida nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash bugungi kunda kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lgan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi.

Kalit so'zlar: 4+2 ta'lim modeli, nazariy ta'lim, amaliy ta'lim, ta'lim integratsiyasi, dual ta'lim tizimi, kasbiy kompetensiya, ta'lim samaradorligi, pedagogik innovatsiya, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi.

ЭФФЕКТИВНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ ПРАКТИКИ 4+2 ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ГАРМОНИЗАЦИИ ТЕОРЕТИЧЕСКОГО И ПРАКТИЧЕСКОГО ОБУЧЕНИЯ

Ёкубджанова Диёрахон Дилшодбек кизи

Наманганский государственный педагогический институт

Направление: Теория и методика образования, магистрант

Аннотация: В данной статье проводится научный анализ педагогической значимости модели обучения 4+2 как одного из ключевых механизмов обеспечения целостной взаимосвязи между теоретическими знаниями и практическими навыками в современном образовательном процессе, а также вопросов ее эффективной организации. Обеспечение гармонизации теории и практики в образовательном процессе в настоящее время является важным условием подготовки конкурентоспособных специалистов с профессиональными компетенциями. В статье рассматриваются возможности модели 4+2 для интеграции теоретического обучения с практической деятельностью, а также анализируются педагогические механизмы, способствующие развитию профессиональных компетенций студентов и повышению эффективности учебного процесса.

Ключевые слова: модель обучения 4+2, теоретическое обучение, практическое обучение, интеграция обучения, дуальное образование, профессиональная компетенция, эффективность образования, педагогические инновации, интеграция обучения и производства

EFFECTIVE ORGANIZATION OF 4+2 PRACTICE TO ENSURE THE INTEGRATION OF THEORETICAL AND PRACTICAL EDUCATION

Yoqubjanova Diyorakhon Dilshodbek qizi

Namangan State Pedagogical Institute

Field of Study: Theory and Methodology of Education, Master's Student

Abstract: *This article provides a scientific analysis of the pedagogical significance of the 4+2 education model as one of the key mechanisms for ensuring the integrated connection between theoretical knowledge and practical skills in the modern educational process, as well as the issues related to its effective implementation. Ensuring the harmony between theory and practice in the educational process is currently a crucial condition for training competitive specialists with professional competencies. The study examines the potential of the 4+2 model to integrate theoretical learning with practical activities and analyzes the pedagogical mechanisms that contribute to the development of students' professional competencies and the enhancement of overall educational effectiveness.*

Keywords: *4+2 education model, theoretical education, practical education, education integration, dual education system, professional competency, education effectiveness, pedagogical innovation, integration of education and production*

KIRISH

Globalashuv jarayonlarining jadallashuvi, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarning modernizatsiyalashuvi hamda mehnat bozorida yuz berayotgan strukturaviy o'zgarishlar zamonaviy ta'lim tizimiga mutlaqo yangi talablarni qo'ymoqda. Xususan, zamonaviy jamiyat sharoitida nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'lgan, balki real ishlab chiqarish jarayonida mustaqil faoliyat yurita oladigan, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va amaliy yechimlar ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash zarurati tobora ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, ta'lim jarayonida nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar o'rtasidagi uzviy integratsiyani ta'minlash pedagogika fanining eng dolzarb muammolaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy pedagogik paradigmalarda ta'lim jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan nazariy bilimlarning amaliy faoliyat bilan uyg'unlashuvi, o'quv jarayonining real ijtimoiy-iqtisodiy muhit bilan integratsiyalashuvi hamda ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning izchil qo'llanilishi bilan belgilanadi[1]. Bugungi kunda ko'plab rivojlangan davlatlar tajribasida nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash maqsadida turli innovatsion ta'lim modellari ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. Ushbu modellarning asosiy maqsadi talabalarda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat

jarayonida qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, ularda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish hamda ta'lim jarayonini mehnat bozori ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etishdan iboratdir. Mazkur jarayonda dual ta'lim, modul asosidagi o'qitish tizimi, loyiha asosidagi o'qitish metodlari hamda ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan ta'lim modellarining ahamiyati alohida e'tiborga loyiqdir. Ana shunday zamonaviy pedagogik yondashuvlardan biri sifatida 4+2 ta'lim modeli alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi[2]. 4+2 ta'lim modeli ta'lim jarayonining nazariy va amaliy komponentlarini muvozanatli ravishda tashkil etishga qaratilgan innovatsion pedagogik yondashuv bo'lib, u talabalarning haftaning to'rt kuni davomida ta'lim muassasasida nazariy bilimlarni egallashi hamda ikki kun davomida ishlab chiqarish korxonalarini, tashkilotlar yoki muassasalarda amaliy faoliyat bilan shug'ullanishini nazarda tutadi. Mazkur model ta'lim jarayonini real ishlab chiqarish muhiti bilan integratsiyalash orqali talabalarning nazariy bilimlarini amaliy tajriba bilan mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu tizim talabalarning kasbiy faoliyatga moslashuv darajasini oshirish, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda muammoli vaziyatlarda optimal qarorlar qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirish imkonini beradi[3]. Pedagogik nazariya nuqtai nazaridan qaralganda, nazariy bilimlar va amaliy faoliyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ta'lim jarayonining fundamental didaktik tamoyillaridan biri hisoblanadi. Klassik pedagogika nazariyalarida ham bilimlarning amaliy faoliyat bilan integratsiyasi o'quv jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim omil sifatida qaralgan. Zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv ham aynan shu tamoyilga asoslanib, ta'lim jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarning kompleks shakllanishini ta'minlashga qaratilgan. Shu bois, 4+2 modeli nafaqat ta'lim jarayonining tashkiliy shaklini o'zgartiruvchi mexanizm, balki talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik tizim sifatida ham namoyon bo'ladi[4]. Hozirgi davrda ko'plab ta'lim muassasalarida nazariy bilimlar bilan amaliy ko'nikmalar o'rtasida muayyan nomutanosiblik mavjudligi kuzatilmogda. Ko'pincha talabalar o'quv jarayonida katta hajmdagi nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirgan bo'lsalar-da, real ishlab chiqarish sharoitida ushbu bilimlarni qo'llashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu esa ta'lim jarayonining

amaliy yo'naltirilganligini kuchaytirish, o'quv dasturlarini ishlab chiqarish ehtiyojlariga moslashtirish hamda ta'lim jarayonida amaliy faoliyat ulushini oshirish zaruratini yuzaga keltiradi. Aynan shu nuqtai nazardan qaralganda, 4+2 ta'lim modeli nazariya va amaliyot o'rtasidagi mavjud tafovutni bartaraf etishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik mexanizm sifatida e'tirof etilishi mumkin[5]. Mazkur modelning pedagogik ahamiyati shundan iboratki, u talabalarning nazariy bilimlarini real faoliyat jarayonida qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi hamda ularning kasbiy shakllanish jarayonini jadallashtiradi. Amaliy faoliyat jarayonida talabalar nafaqat nazariy bilimlarini mustahkamlaydilar, balki ishlab chiqarish muhitining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ham chuqurroq anglay boshlaydilar. Bu esa ularda jamoda ishlash, professional muloqot olib borish, mas'uliyatli qarorlar qabul qilish hamda kasbiy muammolarni hal etish kompetensiyalarining shakllanishiga xizmat qiladi[6].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Nazariy va amaliy ta'lim uyg'unligini ta'minlash masalasi zamonaviy pedagogika va ta'lim menejmenti sohasida keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilayotgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ta'lim jarayonini ishlab chiqarish faoliyati bilan integratsiyalash, talabalar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlarning real kasbiy faoliyat jarayonida qo'llanishini ta'minlash hamda kompetensiyaga asoslangan ta'lim modelini shakllantirish masalalari xorijiy pedagog olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Bu borada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar 4+2 kabi integratsion ta'lim modellari samaradorligini nazariy va metodologik jihatdan asoslashda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi[7]. Nazariya va amaliyot integratsiyasiga oid tadqiqotlar orasida amerikalik pedagog olim David A. Kolbning ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Olim tomonidan ishlab chiqilgan tajribaviy o'qitish konsepsiyasi (Experiential Learning Theory) ta'lim jarayonida bilimlarning shakllanishi insonning bevosita tajribasi, refleksiya jarayoni, nazariy umumlashtirish hamda amaliy faoliyat orqali amalga oshirishini ta'kidlaydi. Kolbning ilmiy qarashlariga ko'ra, samarali ta'lim jarayoni faqat nazariy bilimlarni uzatish bilan cheklanib qolmasdan, balki o'quvchining real faoliyat jarayonida faol ishtirok etishini ham nazarda tutishi lozim. Ushbu konsepsiya ta'lim

jarayonida nazariya va amaliyot o'rtasidagi dialektik bog'liqlikni asoslab berib, amaliy faoliyat orqali olingan tajriba yangi bilimlarni shakllantirishning muhim manbai ekanligini ko'rsatadi. Aynan shu jihat 4+2 ta'lim modelining pedagogik mohiyati bilan ham uzviy bog'liqdir, chunki mazkur model talabalarning nazariy bilimlarni real ishlab chiqarish muhitida qo'llash orqali o'rganishini ta'minlaydi. Kolbning tadqiqotlarida tajribaviy o'qitish sikli to'rt bosqichdan iborat bo'lib, ular konkret tajriba, reflektiv kuzatuv, abstrakt konseptualizatsiya hamda faol eksperimentatsiya jarayonlarini o'z ichiga oladi. Ushbu model pedagogik jarayonni tashkil etishda amaliy faoliyatning muhim didaktik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib beradi[8]. Nazariya va amaliy faoliyat integratsiyasini o'rganishda yana bir muhim ilmiy yo'nalish sifatida dual ta'lim tizimi konsepsiyasi alohida e'tiborga loyiqdir. Ushbu yo'nalishning yetakchi tadqiqotchilaridan biri sifatida germaniyalik pedagog olim Matthias Pilzning ilmiy ishlari keng tan olingan. Pilz o'z tadqiqotlarida kasbiy ta'lim tizimining samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarini o'rtasidagi hamkorlik darajasi bilan belgilanadi degan ilmiy xulosani ilgari suradi. Uning fikricha, zamonaviy kasbiy ta'lim tizimi talabalarning nazariy bilimlarni egallashi bilan bir qatorda real ishlab chiqarish faoliyatida ishtirok etishini ham ta'minlashi zarur. Shu boisdan ham dual ta'lim tizimi talabalarning ta'lim muassasasida o'qish jarayoni bilan ishlab chiqarish korxonalaridagi amaliy faoliyatini o'zaro integratsiyalash orqali kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Pilzning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan ta'lim modellari talabalarning kasbiy moslashuv darajasini oshirish, ularning mustaqil faoliyat yuritish qobiliyatini rivojlantirish hamda mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi[9]. Mazkur ilmiy qarashlar 4+2 ta'lim modelining nazariy asoslarini tushunishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki 4+2 modeli ham aynan nazariy bilimlar bilan amaliy faoliyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlashga qaratilgan pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu model doirasida talabalar haftaning muayyan qismida nazariy bilimlarni o'zlashtirib, qolgan vaqt davomida ishlab chiqarish jarayonida amaliy faoliyat olib borish orqali o'z bilimlarini mustahkamlaydilar. Natijada, ta'lim jarayoni faqat auditoriya

mashg'ulotlari bilan cheklanib qolmay, balki real ijtimoiy-iqtisodiy muhit bilan integratsiyalashgan kompleks pedagogik tizimga aylanadi.

METODOLOGIK QISM

Mazkur ilmiy tadqiqotda 4+2 ta'lim modelining amaliyotini samarali tashkil etish orqali nazariy va amaliy ta'lim uyg'unligini ta'minlash jarayonining pedagogik mohiyatini aniqlash hamda uning samaradorligini ilmiy asoslash maqsadida bir qator zamonaviy pedagogik va ilmiy-tadqiqot metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqot jarayonida, avvalo, nazariy tahlil metodi asosida zamonaviy pedagogika, kasbiy ta'lim tizimi hamda nazariya va amaliyot integratsiyasiga oid ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, ilmiy maqolalar hamda xalqaro tadqiqot natijalari o'rganilib, 4+2 ta'lim modelining pedagogik mohiyati va didaktik imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, qiyosiy-tahliliy metod orqali rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida qo'llanilayotgan nazariya va amaliyot integratsiyasiga asoslangan ta'lim modellarining o'ziga xos xususiyatlari o'rganilib, ularning 4+2 ta'lim modeli bilan o'xshash va farqli jihatlari aniqlashtirildi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv metodidan foydalanish orqali 4+2 ta'lim modelining tarkibiy elementlari, ya'ni nazariy ta'lim jarayoni, amaliy faoliyat jarayoni hamda ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsion aloqalar yagona pedagogik tizim sifatida tahlil qilindi. Shu bilan birga, pedagogik kuzatuv metodi yordamida ta'lim jarayonida nazariy bilimlar va amaliy faoliyatning o'zaro uyg'unlashuvi, talabalarning amaliy mashg'ulotlardagi ishtiroki hamda ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllanish jarayonlari kuzatildi va umumlashtirildi. Tadqiqotning empirik bosqichida esa umumlashtirish va tahliliy sintez metodlari orqali olingan ilmiy ma'lumotlar tizimlashtirilib, 4+2 ta'lim modelini samarali tashkil etish orqali nazariy va amaliy ta'lim uyg'unligini ta'minlashning pedagogik mexanizmlari hamda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy xulosalar shakllantirildi.

NATIJARLAR

Tadqiqot jarayonida 4+2 ta'lim modelining amaliyotini samarali tashkil etish orqali nazariy va amaliy ta'lim uyg'unligini ta'minlash masalasi kompleks pedagogik tahlil asosida o'rganilib, mazkur modelning ta'lim jarayonidagi samaradorligi bir qator ilmiy natijalar orqali asoslab berildi. Olib borilgan ilmiy tahlillar shuni

ko'rsatdiki, 4+2 ta'lim modelini ta'lim tizimiga izchil joriy etish nazariy bilimlar va amaliy faoliyat o'rtasidagi uzviy integratsiyani ta'minlashda muhim pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ta'lim jarayonining haftaning to'rt kuni davomida nazariy bilimlarni egallash hamda ikki kun davomida ishlab chiqarish korxonalari, tashkilotlar yoki muassasalarda amaliy faoliyatni amalga oshirish asosida tashkil etilishi talabalarning bilimlarni amaliy faoliyat jarayonida qo'llash ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, mazkur model talabalar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlarning real ishlab chiqarish muhitida mustahkamlanishiga, kasbiy faoliyatga moslashuv darajasining oshishiga hamda ularning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va amaliy yechimlar ishlab chiqish kompetensiyalarining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

MUHOKAMA

Nazariy va amaliy ta'lim uyg'unligini ta'minlash muammosi zamonaviy pedagogika fanida keng muhokama qilinayotgan ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ta'lim jarayonini ishlab chiqarish faoliyati bilan integratsiyalash hamda talabalar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlarning real kasbiy faoliyat jarayonida qo'llanishini ta'minlash masalasi xorijiy pedagog olimlar tomonidan turli nuqtai nazardan tahlil qilingan. Shu jihatdan qaralganda, 4+2 ta'lim modelining amaliyotini samarali tashkil etish orqali nazariy va amaliy ta'lim uyg'unligini ta'minlash masalasi bir qator ilmiy polemikalar va nazariy bahslar doirasida ko'rib chiqilishi mumkin. Mazkur muammoni tahlil qilishda tajribaviy o'qitish nazariyasining asoschilaridan biri bo'lgan David A. Kolbning ilmiy qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Olimning fikriga ko'ra, bilimlarning samarali o'zlashtirilishi insonning faol tajribasi, reflektiv tahlil, nazariy umumlashtirish va amaliy faoliyat jarayonlari orqali amalga oshadi. Kolb ta'lim jarayonida nazariy bilimlarning o'zlashtirilishi faqat auditoriya mashg'ulotlari bilan chegaralanib qolmasligi, balki talabalarning real faoliyat jarayonida faol ishtirok etishi orqali mustahkamlanishi zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, amaliy faoliyat orqali olingan tajriba yangi bilimlarni shakllantirishning muhim manbai hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, 4+2 ta'lim modeli Kolb tomonidan

ilgari surilgan tajribaviy o'qitish nazariyasining amaliy ko'rinishi sifatida talqin qilinishi mumkin. Chunki mazkur model talabalarga nazariy bilimlarni real ishlab chiqarish muhiti bilan uyg'un holda o'zlashtirish imkonini yaratadi hamda ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi[10]. Biroq mazkur masalaga boshqa bir yondashuv ham mavjud bo'lib, kasbiy ta'lim tizimini tadqiq etgan germaniyalik pedagog olim Matthias Pilz bu jarayonda institutsional hamkorlik omiliga alohida e'tibor qaratadi. Pilzning fikricha, nazariya va amaliyot integratsiyasining samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarini o'rtasidagi tizimli hamkorlik darajasi bilan belgilanadi. U o'z tadqiqotlarida dual ta'lim tizimi tajribasini tahlil qilib, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish uchun ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish tashkilotlari o'rtasida mustahkam institutsional aloqalar bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. Pilzning fikricha, agar amaliy mashg'ulotlar pedagogik jihatdan puxta rejalashtirilmagan bo'lsa yoki ishlab chiqarish korxonalarini bilan samarali hamkorlik yo'lga qo'yilmagan bo'lsa, nazariya va amaliyot integratsiyasining kutilgan samarasi to'liq namoyon bo'lmasligi mumkin.

XULOSA

Mazkur maqola doirasida 4+2 ta'lim modelining amaliyotini samarali tashkil etish orqali nazariy va amaliy ta'lim uyg'unligini ta'minlash masalasi ilmiy jihatdan tahlil qilindi va uning pedagogik samaradorligi asoslab berildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, 4+2 modeli talabalarga haftaning to'rt kuni nazariy bilimlarni o'zlashtirish, qolgan ikki kun esa real ishlab chiqarish muhitida amaliy faoliyat bilan shug'ullanish imkonini berib, ta'lim jarayonida nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzviy integratsiyani ta'minlaydi. Shu orqali talabalar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantiradi, muammoli vaziyatlarda mustaqil yechimlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi va mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Xodjaboyev A. R., Husanov I. Kasbiy ta'lim metodologiyasi //Toshkent. Fan texnologiyasi nashriyoti. – 2007.

2. Qaramanov O. O 'zbekiston Oliy Ta'lim Tizimida Talabalar Malakaviy Amaliyotini Tashkil Etishning Me'yoriy-huquqiy Asoslari Va Amaliy Tajribasi //Maktabgacha va Maktab Ta'limi Jurnal. – C. 676668.
3. Goipova N. B. Inklyziv ta'lim //Gospital pedagogika: darslik/NB Goipova–Namangan. – 2024. – C. 143-150.
4. Qodirova F. U., Pulatova D. A. Inklyziv ta'lim: nazariya va metodika //Chirchiq: ChDPU. – 2022.
5. Ochilova G. O., Akbarova S. S. H. Kasbiy kompetentlik //darslik/Toshkent-2022. – 2022.
6. Saloxitdinov S. Oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholashning zamonaviy konsepsiyalari va innovatsion mexanizmlari: milliy va xalqaro tajribani taqqoslamali tahlil qilish asosida takomillashtirish yo 'nalishlari //Academic literature. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 1-128.
7. Ernazarov A., Chinqulova G. Oliy Ta'limda Kompetenyaga Asoslangan O 'qitish Modellar. //Maktabgacha va Maktab Ta'limi Jurnal. – C. 675204.
8. Kurbanova N. B. Pedagogik psixologiyaning o 'qitish va o 'rganish jarayonidagi nazariy asoslari //pedagog. – 2025. – T. 8. – №. 11. – C. 234-248.
9. Matnazarova K. Oliy Ta'lim Muassasalari talabalarining kasbiy-amaliy ko 'nikmalarini shakllantirishning pedagogik asoslari //Xalq Ta'limi. – C. 16.
10. Bekmuradov Z. Ratsional Hayot Tarzi: Fanlararo Nazariy Asoslar, Tamoyillar Va Amaliy Strategiyalar //Maktabgacha va Maktab Ta'limi Jurnal. – C. 676712.